

*Aksiyadorlik tijorat
Xalq banki Boshqaruving
2023-yil 10-oktabrdagi
113/3 - sonli qaroriga
1-ilova*

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki va “Visa International Service Association” bilan hamkorlikda VISA kobeydjing kartalarini ommalashtirish bo‘yicha yituqli aksiyani o‘tkazish

TARTIBI

Ushbu O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki va “Visa International Service Association” bilan hamkorlikda VISA kobeydjing kartalarini ommalashtirish bo‘yicha yituqli aksiyani o‘tkazish Tartibi (keyingi o‘rinlarda – Tartib) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 3-aprelda 3294-soni bilan ro‘yxatdan o‘tgan “O‘zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo‘lishi qoidalari to‘g‘risida”gi Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki ichki me’yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiq qoidalar

1. Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) va “Visa International Service Association” bilan hamkorlikda VISA kobeydjing kartalarni ommalashtirish bo‘yicha yituqli aksiyani o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Tartibda quyidagi tushunchalardan foydalilanadi:

VISA kobeydjing kartasi – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun mo‘ljallangan “HUMO” va “VISA” to‘lov tizimlarida ishlaydigan va ularning logotiplarini o‘zida aks ettirgan bank kartalari;

Hamkor – Visa International Service Association;

Ishtirokchi – Aksiya shartlarini qabul qilgan va uning ishtirokchisiga aylangan mijoz;

Komissiya – Aksiya ishtirokchilari va g‘oliblarini aniqlash bo‘yicha tuzilgan ishchi guruhi;

VisaNet – VISA to‘lov tizimida ro‘yxatdan o‘tgan bank kartalari orqali to‘lovlarni qayta ishlash uchun yaratilgan maxsus global onlayn tizim.

3. Aksiyani o‘tkazish muddatlari, yituq fondi va miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlanadi.

4. Yituqli aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar Bank Boshqaruvi va hamkor o‘rtasidagi 2023-yil 12-maydagги P-134198-0623-son bilan imzolangan shartnomaga asosan hamkor tomonidan ikki bosqichda moliyalashtiriladi.

2-bob. Aksiya ishtirokchilari

5. Aksiyada Bank filiallarida ochilgan VISA kobeydjing kartasi egalari bo‘lgan va 18 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qatnashishi mumkin.

6. Bank xodimlari ushbu aksiyada ishtirok etishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

7. VISA kobeydjing kartasi bilan bitta tranzaksiya orqali 200 000 so‘m va undan yuqori bo‘lgan summaga yoki uning ekvivalentiga tovar yoki xizmat xaridini amalga oshirgan mijoz aksiya ishtirokchisiga aylanadi.

8. Aksiyada Bankda chiqarilgan VISA kobeydjing kartalari orqali amalga oshirilgan hamda hamkorning qoida va shartnomalariga muvofiq o‘z mijozlariga avtorizatsiya, kliring va to‘lov xizmatlarini ko‘rsatadigan VisaNet tizimi orqali qayta ishlangan hamda ushbu tartibning 7-bandida ko‘rsatilgan shartlarga mos barcha naqdsiz tranzaksiyalar ishtirok etadi.

3-bob. Aksiyani o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash tartibi

9. Bank kartalari tizimlarini qo‘llab-quvvatlash departamenti va Informatsion texnologiyalar departamenti xodimlari birgalikda Yutuqli aksiyani o‘tkazish muddatlari, yutuq fondi va miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlarda ko‘rsatilgan davr davomida aksiyada ko‘rsatilagan shartlarni bajargan Bank kartalari ro‘yxatini shakllantiradi va ushbu ro‘yxat g‘oliblarni aniqlash uchun aksiyani o‘tkazishga mas’ul Komissiyaga Excel formatda taqdim etiladi.

Ushbu ro‘yxatda tartib raqam, karta raqami, karta egasi familiya, ism va sharifi, tranzaksiya amalga oshirilgan sana hamda jismoniy shaxslarning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) kabi ma’lumotlar shakllantiriladi.

10. Komissiya tomonidan g‘olibni aniqlash Bankning “Instagram” ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy sahifasida “Random.org” dasturi orqali onlayn rejimda amalga oshiriladi.

11. Aksiya g‘olibini aniqlash jarayoni reglamenti asosida amalga oshiriladi.

12. Bank Boshqaruvi aksiyani o‘tkazish tartibiga o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega bo‘lib, bu haqidagi ma’lumotni o‘zgartirilgan tartib kuchga kirishidan 3 (uch) bank ish kuni oldin Bankning www.xb.uz veb sayti orqali e’lon qilinadi.

13. Aksiya g‘oliblari to‘g‘risidagi ma’lumot Bankning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e’lon qilib boriladi.

14. Aksianing bir turida g‘olib deb topilgan ishtirokchilar ushbu aksianing keyingi turlarida ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

15. Bank aksiya g‘oliblari aniqlangan kundan 3 (uch) ish kuni davomida, ishtirokchi Bank kartasi rasmiylashtirayotgan vaqtida ko‘rsatgan telefon raqami orqali ishtirokchi bilan bog‘lanadi va sovrinni yetkazib berish bo‘yicha barcha ma’lumotlarni aniqlashtiradi.

4-bob. Yutuqli sovrinni qabul qilish vaqtি va tartibi

16. Sovrinni olish uchun g‘olib ishtirokchi Bankka quyidagi hujjatlar va (yoki) ma’lumotlarni taqdim etishi lozim:

a) Amaldagi shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta yoki doimiy yashash uchun guvohnoma, harbiy guvohnoma);

b) Bank tomonidan mijozga sovrinni topshirganligi to‘g‘risida imzolangan dalolatnama (1-ilova).

17. G‘olib ishtirokchi Bankka so‘ralgan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortsa yoki boshqa sabablarga ko‘ra taqdim etmasa, sovrinni olish huquqini yo‘qotadi va mazkur yutuq o‘ynalmagan hisoblanib, aksianing keyingi turida o‘ynaladi.

18. Aksiya sovrinlari pul yoki boshqa istalgan ko‘rinishdagi tovarga almashtirib berilmaydi. Sovrinlar qaytarib olinmaydi. Sovrinni olish huquqi g‘olib ishtirokchi tomonidan uchinchi shaxsga o‘tkazilmaydi.

19. Aksiya ishtirokchilari aksiya davom etayotgan davr mobaynida kirish qo‘ng‘iroqlari va xabarlarining imkonini bo‘lishi uchun javobgar hisoblanadi.

20. G‘olib e’lon qilingandan so‘ng yutuqlarni 30 (o‘ttiz) bank ish kuni mobaynida olib ketish lozim bo‘ladi.

21. G‘olib tomonidan Yutuqlar 30 (o‘ttiz) bank ish kuni mobaynida murojaat qilinmagan taqdirda, Bank mazkur yutuqni aksianing keyingi turiga yutuqlar ro‘yxatiga kiritadi.

5-bob. Aksiyani o‘tkazishga mas’ul komissiyasi faoliyati

22. Komissiya tarkibi Bank kartalari tizimlarini qo‘llab-quvvatlash departamenti taklifiga asosan Boshqaruv qarori bilan tasdiqlanadi.

23. Komissiyasi tarkibi 6 (olti) kishidan kam bo‘lmasligi lozim. Ular Komissiya raisi, uning o‘rinbosari, kotibi va a’zolaridan iborat bo‘ladi.

24. Komissiyasi tarkibi va/yoki ularning o‘zgarishi haqidagi ma’lumotlar tashkilotchi tomonidan rasmiy veb-sahifasi hamda ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilib boriladi.

25. Komissiya quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:

a) Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq nizoli holatlarni ko‘rib chiqish;

b) Aksiya natijalari bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilish (natijalar ro‘yxatini tuzish va tasdiqlash)

c) Aksiyani haqqoniy va to‘g‘ri o‘tkazishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillar, jumladan, ma’lumotlarni kompyuter viruslari bilan zararlanishi, noqonuniy aralashish, soxtalashtirish, texnik nosozliklar yoki Departament va/yoki Komissiya nazorat qila olmaydigan boshqa har qanday sabablar aniqlangan holatda aksiya g‘oliblarini aniqlash jarayonini to‘xtatish yoki to‘xtatib turishi mumkin.

26. Komissiya qarorlari Bayonnomaga shaklida kotib tomonidan rasmiy lashtiriladi va Komissiya a’zolari tomonidan tasdiqlanadi.

6-bob. Javobgarlikni cheklash

27. Bank quyidagilar uchun javobgar hisoblanmaydi:

- a) Ishtirokchi tomonidan Aksiyada ishtirok etish va (yoki) sovrinlarni olish bilan bog‘liq vazifalarni bajarmaganliklari (vaqtida bajarmaganliklari);
- b) Ishtirokchining yutuqli o‘yin o‘tkazilishi tartibi, shuningdek, Aksiya o‘tkazilishi natijalari bilan tanishib chiqmaganligi;
- c) Bankdan ishtirokchilarga yuborilgan va ishtirokchilar tomonidan Bankka yuborilgan xabar, qo‘ng‘iroq va/yoki elektron xabarlarlarning yetib kelmasligi, shu jumladan, Aksiya davomida foydalaniladigan pochta xizmati, aloqa tashkiloti aybiga ko‘ra, texnik nosozlik sababli va/yoki internet va/yoki aloqa kanallaridagi nosozlik va/yoki firibgarlik natijasida yuzaga kelgan hoilatlarga;
- d) Ishtirokchi tomonidan sovrinni olish uchun kerakli bo‘lgan hujjat va/yoki guvohnomalarni yetkazmaslik (vaqtida yetkazmaslik);
- e) Aksiyani o‘tkazish va sovrinni olish uchun kerakli bo‘ladigan kontaktlar va/yoki boshqa ma’lumotlarning ishtirokchi tomonidan to‘liq bo‘lmagan holda taqdim etilishi yoki umuman taqdim etilmasligi;
- f) Mobil aloqa operatorlari, Internet-provayderlarning istalgan turdag, yutuqli o‘yin tashkilotchisiga aloqasi bo‘lmagan texnik nosozliklar, uzilishlar, profilaktik ishlar va boshqalar;
- g) Aksiya ishtirokchisi tomonidan Aksiyada ishtirok etish va (yoki) sovrinni olishda keltirilgan istalgan turdag xarajatlar va (yoki) yo‘qotishlar;
- h) Oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (fors-major) yozaga kelganda, shu jumladan, COVID-19 sababli favqulotda vaziyat va/yoki sanitar-epidemiologik cheklovlar kiritilishiga javobgar hisoblanmaydi.

7-bob. Shaxsiy ma’lumotlar

28. Aksiyada qatnashishga rozilik berib, ishtirokchi o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini Bank va u tomonidan ushbu huquq taqdim etilgan shaxslar tomonidan qayta ishlanishiga hamda ulardan aksiyani o‘tkazish, reklama maqsadida foydalanish uchun o‘z roziligini beradi.

8-bob. Boshqa shartlar

- 29. Aksiyada ishtirok etib, ishtirokchi quyidagilarni tasdiqlaydi:
 - a) Aksiya o‘tkazilishi tartibi va shartlari bilan to‘liq tanishib chiqqanligi.
 - b) O‘zining tasviri bo‘lgan fotomateriallar, intervyu va uning ishtirokida boshqa materiallarni Bankni reklama qilish yoki aksiyani anons qilish maqsadlarida, ishtirokchiga to‘lov amalga oshirmagan holda Bank tomonidan foydalanishiga rozilik bildirishi. Ishtirokchi Bankka aksiyani reklama va/yoki anons qilish, Bankni reklama qilish maqsadlarida omaviy chiqishni efirga berish hamda shunga teng bo‘lgan mualliflik huquqlarini taqdim etadi;
 - c) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 377-moddasi 5-bandи va 387-moddasi 1-qism, 4-bandiga muvofiq, ishtirokchi g‘olib bo‘lgan taqdirda, sovrinni olish bilan bog‘liq barcha soliqlarni to‘lash vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Bunda, mas’ul bank xodimi

G'olibni o'rnatilgan tartibda identifikasiyadan o'tkazadi, shaxsni tasdiqlovchi hujjatdan nusxa oladi hamda Bank Bosh amaliyotlar boshqarmasida ochilgan MFO 01125 22506000600001125006 hisob raqamiga mijozdan olingan soliq summasini ko'chiradi. Yutuq soliq to'lovlari to'liq to'langandan so'ng mijozga taqdim etiladi.

d) Bank ishtirokchiga oid bo'lgan ma'lumotlarni OAV, internet sahifasi, internet tarmog'iga joylashdan avval, ishtirokchi bilan oldindan kelishmasdan o'zgartirishi mumkin.

30. Bank yutuqli o'yin ishtirokchilarining kutgan sovrinlariga nomutanosibligi bo'yicha javobgar emas.

31. Aksiyada ishtirok etib, barcha ishtirokchilar amaldagi rasmiy qoidalar bilan diqqat bilan tanishib chiqqanliklari va rasmiy qoidalar shartlari bilan to'liq, hech qanday cheklov yoki istisnolarsiz roziliklarini bildiradilar.

9-bob. Aksiya o'tkazish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish tartibi

32. Aksiyani keng yoritish uchun flayerlar va boshqa reklama materiallari tayyorlanadi hamda mazkur aksiya o'tkazilishi va natijalari to'g'risida ma'lumotlar bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida hamda ommaviy axborot vositalari orqali yoritiladi.

33. Aksiyani reklama qilish bo'yicha xarajatlar smetasi Boshqaruv qarori bilan tasdiqlanadi.

34. Aksiya shartlari to'g'risida to'liq malumotlar Bankning rasmiy veb-saytida www.xb.uz joylashtiriladi. Mijoz Bankning 1106, (+998 71) 210-20-02 telefon raqamlari orqali qo'shimcha ma'lumotlar olishi mumkin.

10-bob. Yakuniy qoidalar

35. Mazkur tartib Boshqaruv qarori bilan tasdiqlangandan kundan e'tiboran amaliyotga tatbiq qilinadi.

36. Mazkur tartibga o'zgartirishlar va qo'shimchalar Boshqaruv qarori bilan kiritiladi.

37. Ushbu tartibda ko'zda tutilmagan holatlar amaldagi qonun hujjatlari hamda Bankning ichki me'yoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi.

Bank kartalari tizimlarini

qo'llab-quvvatlash departamenti direktori

T. Baxramov

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat
Xalq banki va "Visa International Service
Association" bilan hamkorlikda VISA kobeydjing
kartalarini ommalashtirish bo'yicha yituqli
aksiyani o'tkazish tartibiga
1-ilova

**VISA kobeydjing kartalarini ommalashtirish bo'yicha yituqli aksiya g'olibiga yituqni
topshirish-qabul qilish dalolatnomasi**

Biz kim, quyida imzo chekuvchilar, O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq Banki " _____" BXM _____ bo'limi xodimi _____ (keyingi o'rinda Mas'ul xodim) hamda passport/ID-card seriya va raqami _____ bo'lgan fuqaro _____ (keyingi o'rinda G'olib) ushbu bilan, **Mas'ul xodim** quyidagi belgilangan yituqni topshirganini, **G'olib** esa uni shaxsan o'zi qabul qilganini tasdiqlaymiz:

*

Xorijga tur uchun 36 mln so'mlik sertifikat
Apple iPhone 14 Pro Max 256GB smartfoni
Elektrosamokat
Samsung 43" Smart televizori
Samsung Galaxy A54 smartfoni

Topshirdi:

FISh: _____

Imzo: _____

Qabul qildi:

FISh: _____

Imzo: _____

*Yituq oldiga «V» qo'yilsin, bo'sh kataklar o'rni «X» bilan to'ldirilsin

Aksiyadorlik tijorat
Xalq banki Boshqaruvining
2023-yil 10-oktabrdagi
113/3 - sonli qaroriga
2-ilova

**Yutuqli aksiyani o‘tkazish
muddatlari, yutuq fondi va miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar**

- Ushbu aksiya 3 turga bo‘lingan holda o‘tkaziladi:

Tur	Muddat
1-tur	2023 yil 15 oktyabrdan 2023 yil 31 dekabrgacha
2-tur	2024 yil 1 yanvardan 2024 yil 31 martgacha
3-tur	2024 yil 1 apreldan 2024 yil 30 iyungacha

- Yutuqlar fondi:

Nº	Yutuq nomi	Yutuq fondi (so'mda)
1-tur		
1	Xorijga tur uchun 36 mln so‘mlik sertifikat	36 000 000,00
2	Apple iPhone 14 Pro Max 256GB smartfoni	16 000 000,00
3	Elektrosamokat Midway Yamato 0809 Pro*	7 260 000,00
4	Samsung 43" Smart televizori	8 500 000,00
5	Samsung Galaxy A54 smartfoni	6 202 000,00
Jami		73 962 000,00
2-tur		
1	Xorijga tur uchun 36 mln so‘mlik sertifikat	36 000 000,00
2	Apple iPhone 14 Pro Max 256GB smartfoni	16 000 000,00
3	Elektrosamokat Midway Yamato 0809 Pro*	7 260 000,00
4	Samsung 43" Smart televizori	8 500 000,00
5	Samsung Galaxy A54 smartfoni	6 202 000,00
Jami		73 962 000,00
3-tur		
1	Xorijga tur uchun 36 mln so‘mlik sertifikat	36 000 000,00
2	Apple iPhone 14 Pro Max 256GB smartfoni	16 000 000,00
3	Elektrosamokat Midway Yamato 0809 Pro*	7 260 000,00
4	Samsung 43" Smart televizori	8 500 000,00
5	Samsung Galaxy A54 smartfoni	6 202 000,00
Jami		73 962 000,00
Jami yutuq fondi		221 886 000,00

3. G‘oliblarni bankning ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirda aniqlash grafigi quyidagicha:

Tur	G‘oliblarni aniqlash kuni va vaqtি**
1-tur	2024 yil 12 yanvar kuni soat 17:00 da
2-tur	2024 yil 5 aprel kuni soat 17:00 da
3-tur	2024 yil 5 iyul kuni soat 17:00 da

* yoki elektrosamokatning boshqa alternativ modeli

** agar g‘oliblarni aniqlash kuni yoki vaqtি o‘zgarsa, bu haqida ma’lumot bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari hamda bankning xb.uz rasmiy saytida e’lon qilinadi.

*Aksiyadorlik tijorat
Xalq banki Boshqaruving
2023-yil 10-oktabrdagi
113/3 - sonli qaroriga
3-ilova*

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki va “Visa International Service Association” bilan xamkorlikda VISA kobeydjing kartalarini ommalashtirish bo‘yicha yutuqli aksiyani o‘tkazish bo‘yicha Komissiya Raisi va a’zolari tarkibi

Komissiya Raisi:

Operatsiyalar kompleksi rahbari

K. Shernazarov

Komissiya Raisi o‘rinbosari:

Bank kartalari tizimlarini qo‘llab-quvvatlash departamenti direktori

T. Baxramov

Komissiya a’zolari:

Bank brendi va axborot xizmati rahbari

G. Alimova

Bank kartalari tizimlarini qo‘llab-quvvatlash departamenti boshqarma boshlig‘i

L. Osmanov

Bank brendi va axborot xizmati Marketing bo‘limi boshlig‘i

M. Osmanov

Informatsion texnologiyalar departamenti bosh mutaxassisi

A. Quldoshev

Komissiya kotibi:

Bank kartalari tizimlarini qo‘llab-quvvatlash departamenti bosh mutaxassisi

A. Kuziboyev

Aksiyadorlik tijorat
Xalq banki Boshqaruving
2023-yil 10-oktabrdagi
113/3 - sonli qaroriga
4-ilova

Aksiyani reklama qilish bo'yicha harajatlar smetasi

so'mda

Reklama hududi	Oktabr 2023	Noyabr 2023	Dekabr 2023	Yanvar 2024	Fevral 2024	Mart 2024	Aprel 2024	May 2024	Iyun 2024	Xarajatlar smetasi	Izoh
Metroda reklama		+	+	+			+	+		175 000 000	Vagonlarda yoki metro bekatlarining yo'l devorlarida reklama.
Telegram kanallarida reklama	+	+	+	+	+	+	+	+	+	151 200 000	Ommaviy segmentning telegram kanallarida va ommabop sahifalarda reklama.
Raqamli reklama (Instagram, Meta (Facebook), Yandex, Google)		+	+	+	+	+	+	+	+	174 182 400	Geografik miqyos va qiziqishlar bo'yicha maqsadli reklama. Oyiga 600 ming foydalanuvchini qamrab olish
PR maqola (kun.uz / repost.uz)		+	+		+	+		+	+	73 920 000	Muvaffaqiyatli sinovlardan so'ng. Mijozlarni yanada rag'batlantirish uchun
Bosma materiallar (Flayerlar va X- bannerlar)	+	+	+	+	+	+	+	+	+	125 000 000	VISA-HUMO kobeyj kartasini chiqargan barcha yangi mijozlarga flayer taqdim etish. Miqdori: 500 000 dona. Shuningdek, bankning markaziy filiallarida (100 dona) VISA bilan qo'shma aksiya haqida X-banner o'rnatish
Jami byudjet										699 302 400	Bundan 37 500 AQSH dollari ekvivalentidagi mablag' aksiya so'ngida VISA tomonidan moliyalashtirilgan mablag'lar evaziga qoplab beriladi (Jami VISA tomonidan Aksiya uchun 75 000 AQSH dollari ajratilgan)